

QATAG'ON QURBONLARI XOTIRASI MUZEYI



*Namangan viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi. Hodimi
Qosimjonova Sadoqat*

Ma'lumki, tarix muzeylari halq hotirasining ifodasi hisoblanadi. 1999-yili O'zbekiston Respublikasi birinchi Prizidenti I.A. Karimov tashabbusi bilan mamlakatimizda qatag'on qurbanlari hotirasini abadiylashtirish va "Shaxidlar hotirasi" yodgorlik majmuasini barpo etishga qaror qilindi va bu borada ulkan ishlar amalga oshiriladi. Jumladan, Milliy Mustaqillik, Vatan ravnaqi, yurt ozodligi uchun jonini fido qilgan el o'g'lonlarining ulug' hotirasiga poytaxtda muazzam hiyobon barpo etildi. Birinchhi prizidentimiz tashabbusi va rahnamoligida bunyod etilgan va 2002-yil 1 agust – qatag'on qurbanlarini yod etish kunida ochilgan "Qatag'on qurbanlari xotirasi" muzey quruvchilar, me'morlar va tarixchi olimlarning ulkan mehnati mahsuli bo'ldi. Xalqimizning milliy qadr-qimmati tiklanishiga, o'zligini qaytadan namoyon etishga istiqlol yo'l ochdi va biz ona vatanimiz va halqimiz tarixi bilan faxrlanish, o'tgan ajdodlarimizning ulug' xotirasini e'zozlashdek yuksak insoniy-ma'naviy imkoniyatlarga ega bo'ldik. Majmua qay tarzda dunyoga kelganligi va muzey aynan shu joyga mo'ljallanganligi to'g'risida "Shaxidlar hotirasi" "hayriya jamg'armasi raisi Naim Karimovning keltirgan manbaalaridan quyidagilar ayon bo'ladi: Bugun ko'rakam ziyoratgoh barpo etilgan joylar XX asrning qariyib 80 – yillariga qadar Toshkentning eng pastkam, hilvat go'shasi bo'lgan. Bu yerdagi birdan- bir inshoot "Alvasti ko'pri" deb nomlangan. Huddi shu yerning 20- yillar adog'ida adog'idan boshlab mustabid davlatga qatag'on o'rnida hizmat qilgani ham tasodiy emas. Mutahassislarning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 20- 40 – yillar orasida bu yerda uchta qatlgoh bo'lgan. Ularning biri- television minoraning ishchilar shaxarchasi tomon tushgan "oyog'i" "atrofida, ikkinchisi ziyoratgohning yuiqori tarafida, uchinchisi "Abraziv" zavodining o'rnida



bo'lgan. Shu tarzda Yunusobod qariyb yarim asr mobaynida xalqimiz tarixdagi eng daxshatli voqealarning tilisiz guvohiga aylangan.

Muzeyda istiqlol yillarida ma'naviy qadryatlarimiznitiklash bo'yicha olib borilgan katta va muhum ishlar alohida ekspozitsiyalarda aks etgan. Bu ekspozitsiyalarning joylashishi va ularni koz qorachig'iday saqlash qanday texnologiyalardan foydalanilayotgani juda muhumdir.

Shaxid ketgan ajdodlarimiz xotirasiga bag'ishlangan, g'oyat qisqa muddatda qad roslagan yodgorlik majmuyi va muzeyi aynan shu joyda- ko'p – ko'p tarixiy voqealarga guvoh bo'lgan qadiymiy Bo'zsuv sohilida bejiz barpo etilgani yo'q.

Muzeyga kiraverishda mamlakatimizning birinchi prizidenti I.A.Karimovning "Mustabid tuzum davrida million – million begunoh insonlarning umri hazon bo'lganligini, qancha- qancha oilalar honavayron bo'lib qancha- qancha go'daklar yetim qolganligini tarix, bugungi va kelajak avlod xech qachon unutmaydi" degan so'zları yozilgan. 130 yil davom etgan mamlakatchilik yillarida vatan va halq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimizning porloq xotirasi ana shu yodgirlikda o'z abadiyatini topdi.

Shu tarixiy kundan bir yil avval O'zbekiston Respublikasining birinchi prizidentining mustamlakachilik davrida milliy istiqlol va taraqqiyot yo'lidagi intilishlari uchun nohaq ayblanib, turli jazo taziqlarga mahkum etilgan vatandoshlarimiz hotitasini abadiylshtirish yuzasidan amaliy ishlar olib borish uchun jamoatchilik komissiyasi tuzilgan edi. 1999yil 22 iyul kuni esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qatag'on qurbonlari xotirasini abadiylshtirish to'g'risidagi qarori qabul qilinib va unda Yunusobod tumanidagi Bo'zsuv qirg'og'ida Mustamlakachilik davri qurbonlari yodgorlik majmuini barpo etish hamda "Shaxidlar xotirasi" hayriya jamg'armasi tuzish lozimligi qayd etilgan edi.



Qatag'onlarni xotirlash va e'zozlash xalq ozodligi yo'lida qurbon bo'lgan ajdodlarimizning porloq xotirasini tiklash maqsadida 2002 yil 31- Avgust kuni O'zbekiston Respublikasi birinchi Prizidenti I.A.Karimov tashabbusi bilan “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyi ochildi.

Muzeyning tashqi ko'rinishi: “Qatag'on qurbonlari xotirasi” muzeyi “Shaxidlar xotirasi maydonining markazida joylashgan bo'lib maydonga yanada ko'rk va fayz bag'ishlab turibti. Muzeyning tomi vazifasini o'tovchi “Ko'k gumbaz” “Usta” birlashmasi tomonidan ishlangan. Bino atrofidagi 28ta ustun Qo'qonlik usta Abdug'ani Karomov va uning shogirtlari tomonidan “Yog'och o'ymakorligi “ usulida juda katta did bilan ishlangan. Hozirgi kunda muzey ichidagi toshkentlik ustalar tomonidan yasalgan eshik orqali kiriladi. Muzeyning ichki ko'rinishi : muzey zali yorug' va shinam. Zal markazida “Iztirob haykali” o'rnatilgan. Unda farzandini ko'tarayotgan ota-onasi, o'z yorini sog'inga ayol, ota mexriga to'ymagan bola tasvirlangan. Devorlarga muzeyni bo'limlarga ajratuvchi, mvzularga oid, o'sha davlarga hos lavha – suratlar osilgan.

Muzey 7 bo'limdan iborat. 1. XIX asr o'rtalari va oxirlari. 2. 20-yillardagi qatag'on. 3. “quloq”lashtirish davri 4. 30- yillardagi qatag'on. 5. 40-50- yillardagi qatag'on. 6. 80- yillardagi qatag'on. 7. mustaqillik yillarida qatag'onlarni xotirlash va e'zozlash. Har bir bo'limda shu davrga oid hujjatlar, mahfiy qog'ozlar, rasmlar, davr lavhalari va eksponadlar bor. Millatimiz faxru iftixori bo'lgan Abdulla Qodiriy, Abdurauf Fitrat, Abdulhamid Cho'lpon singari yuzlab ulug'zotlarning ham shu yerda qatl etilganligi yaqingacha ko'pchilikka ma'lum emas edi. Barchamizning taqdirimizga daxldor bo'lgan tarixiy adolatni tiklash, xalqimiz va millatimizning yaqin o'tmishidagi hali-hanuz sir bo'lib kelayotgan yopiq sahifalarni to'liq ichib berish, shu tarixdan saboq chiqarib, bugungi va kelajak hayotimizga ongli qarashni mana shu yodgorlik hamda muzey o'rgatishi shubhasiz. Zero muzeylarni tashkil qilishdan maqsadimiz ham shu jamiyat va yashab turgan insonlarning o'z vatani tarixiga befarq qolmasliklari, ayniqsa yoshlarning o'zlaridan katta ajdodlari hayoti va tutgan yo'llariniyaxshi



bilish, ularni xotirasini abadiylashtirish, vatan ozodligi, tinchligi, farovon hayoti uchun ulardek mardlarcha, fidokorona mexnat qilishlari sari ilhomlashtirishdir. O'zligini anglash har bir fuqoro shu yurtning kelajagi, farzandkar kamoli va yaxshi turmushi uchun bor kuch -quvvatini safarbarqiladi. Bu muzey halqimiz hayoti, ayniqsa yoshlar manaviy dunyoqarashini shakillantirish, ularda ajdodlarga nisbatan mehr, iftihor tuyg'usini takomillashtirishda muhum vazifalarni amalga oshiradi. Madaniy –marify g'oyalarni keng halq ommasi o'rtaida tarqatish, targ'ib qilish va jahonga ko'z – ko'z qola turib, ajdodlariga munosib tarzda hayot kechirishlari, mehnat qilishlaari va buyuk ishlarni amalga oshirish sari ilhom baxsh etadi. Muzeylarda olingan tassurot, bilmlar kishiga estetik hamda manaviy zavq bag'ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev N. San'at tarixi. 2t-T.; «San'at» 2001,
2. Qurbanova Y. Amaliy san'at buyumlariga badiiy ishlov berishda turli ranglardan foydalanish. BMI. Toshkent – 2014, .
3. Sadikova N. O'zbek milliy kiyimlari: XIX–XX asrlar.
4. Malikova S.S. Tasviriy san'at tarixi. – T., 2008.
6. Abdullayev N.U. San'at tarixi. – T.: «O'qituvchi»

